



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TURIZM VA SPORT VAZIRLIGI
BUYRUG‘I**

2021-y. “21” iyun

270 I/Ch-sonli

**Sportning basketbol FIBA 3x3 turi
bo‘yicha erkaklar va ayollar hamda
yoshlar va qizlar o‘rtasida
O‘zbekiston chempionatini o‘tkazish
to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligining sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining 2021-yil uchun respublika kalendar rejasiga muvofiq

BUYURAMAN:

1. Sport o‘yinlari bo‘yicha Respublika oliy sport mahorati maktabining 2021-yil 9-iyundagi 200-201-sonli xatlari ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Sportning basketbol FIBA 3x3 turi bo‘yicha erkaklar va ayollar hamda yoshlar va qizlar o‘rtasida O‘zbekiston chempionatini (bundan buyon matnda musobaqa deb yuritiladi) 2021-yil 25-iyun–15-avgust kunlari Toshkent shahrida o‘tkazilsin.

3. Musobaqalarda ishtirok etuvchi xodimlar tarkibi 1-ilovaga, musobaqani o‘tkazish sarf-xarajatlar smetasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Moliya-iqtisodiyot departamenti (B.Mirzaxmedov)ga:

a) musobaqalarni o‘tkazish bilan bog‘liq sarf-xarajatlarni vazirlikning sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining 2021-yil uchun respublika kalendar rejasida 2.1.4-basketbol bo‘limida belgilangan mablag‘lar hisobidan qoplanishini nazarda tutish;

b) musobaqalarning sarf-xarajatlar smetasiga muvofiq mablag‘larni Sport o‘yinlari bo‘yicha Respublika oliy sport mahorati maktabining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘iga o‘tkazib berilishini ta‘minlash vazifalari yuklatilsin.

5. Musobaqa g‘olib va sovrindorlarni 90 dona (1-o‘rin 30 dona, 2-o‘rin 30 dona, 3-o‘rin 30 dona) diplomlar bilan taqdirlash O‘zbekiston basketbol federatsiyasi hisobidan qoplanishi inobatga olinsin.

6. Musobaqa bosh hakami va hakamlarning ovqatlanish xarajatlari ularning bank plastik kartochkalariga pul o‘tkazish yo‘li orqali amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

7. Sport o‘yinlari bo‘yicha Respublika oliy sport mahorati maktabi (J.Akramov)ga:

a) musobaqalar uchun ajratilgan mablag‘larni maqsadli sarflash;

b) musobaqalar yakunidan so'ng uch kun muddat ichida vazirlikning Moliya-iqtisodiyot departamentiga mablag'larning sarflanishi bo'yicha moliyaviy hamda olimpiya va paralimpiya sport turlarini rivojlantirish boshqarmasiga texnik hisobotlarni topshirish;

v) musobaqalar davrida vazirlikning Matbuot xizmatiga musobaqaga oid fotolavhalar va to'liq ma'lumotlarni kunma-kun berib borish vazifalari yuklatilsin.

8. Toshkent shahar turizm va sport bosh boshqarmasi:

a) musobaqalarni o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi 205-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ommaviy tadbirlarni o'tkazish qoidalari"ga asosan Toshkent shahar hokimligidan tegishli ruxsatnoma olish;

b) musobaqalarni tashkil etishda Sport o'yinlari bo'yicha Respublika oliy sport mahorati maktabiga amaliy yordam ko'rsatish vazifalari yuklansin.

9. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar turizm va sport bosh boshqarmalariga ushbu musobaqada o'zlarining terma jamoasi ishtirokini ta'minlash vazifasi yuklatilsin.

10. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar turizm va sport bosh boshqarmalari hamda vazirlik tizimidagi respublika tizim tashkilot hamda muassasalari rahbarlariga mazkur buyruqning 1-ilovasiga muvofiq tegishliligi bo'yicha xodimlarni musobaqada ishtirok etishini ta'minlash vazifasi yuklatilsin

11. Devonxonaga mazkur buyruq nusxasini Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar turizm va sport bosh boshqarmalari hamda Sport o'yinlari bo'yicha Respublika oliy sport mahorati maktabiga yuborish vazifasi yuklatilsin.

12. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Vazir o'rinbosari



A.Karimov

Turizm va sport vazirligining
2021-yil “_____” _____dagi
_____ - sonli buyrug‘iga
1-ilova

**Sportning basketbol FIBA 3x3 turi bo‘yicha erkaklar va ayollar hamda
yoshlar va qizlar o‘rtasida O‘zbekiston chempionatini o‘tkazishda ishtirok
etuvchi xodimlar
TARKIBI**

T/r	Familiyasi va ismi	Lavozimi	Yashash joyi
1.	Pasxin Yuriy Dmitrievich	Bosh hakam	O‘zbekiston basketbol federatsiyasi musobaqa kordinatori
2.	Medunitsa Stepan Anatol’evich	Bosh hakam o‘rinbosari	O‘zbekiston basketbol federatsiyasi FIBA 3x3 rivojlantirish bo‘limi boshlog‘i
3.	Medunitsa Vera Vladimirovna	Bosh kotib	O‘zbekiston basketbol federatsiyasi FIBA 3x3 rivojlantirish bo‘limi xodim
4.	Xalitov Esat Rustemovich	Hakam	Toshkent oliy sport mahorati maktabi trener
5.	Mirzoyev Kyamran Ravshan o‘g‘li	Hakam	Toshkent oliy sport mahorati maktabi sportchi
6.	Abduraxmonov Ruslan Ayderovich	Hakam	V.I.Gubkin nomidagi neft va gaz universiteti katta o‘qituvchisi
7.	Ubaydullayev Dilshodbek Rustambekovich	Hakam	V.I.Gubkin nomidagi neft va gaz universiteti katta o‘qituvchisi
8.	Abduvaliyeva Zebo Odiljon qizi	Hakam	O‘zbekiston Jahon tillari Universiteti 2-bosqich talabasi
9.	Danielyan Guzaj Abbasovna	Hakam	Toshkent shahar Sport o‘yinlari va engil atletikaga ixtisoslashtirilgan bolalar o‘smirlar sport maktabi trener
10.	Varkulevich Maksim Borisovich	Hakam	Toshkent viloyati Sport o‘yinlari va engil atletikaga ixtisoslashtirilgan bolalar o‘smirlar sport maktabi trener
11.	Kuchina Lyudmila Viktorovna	Hakam	Toshkent shahar Sport o‘yinlari va engil atletikaga ixtisoslashtirilgan bolalar o‘smirlar sport maktabi direktor o‘rinbosari
12.	Berdeshev Renat Xamitovich	Hakam	135-umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchi
13.	Nuraliyev Xurmatjon Muxammadraximovich	Hakam	O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi sport markazi instruktori
14.	Ganiev Ravshan Mumindjanovich	Hakam	O‘zbekiston basketbol federatsiyasi bosh kotib
15.	Xashimov Dilshod Kasimdjanovich	Hakam	O‘zbekiston basketbol federatsiyasi musobaqa kordinatori
16.	Xurramov Axror Tulkinovich	Hakam	O‘zbekisti Davlat Jismoniy tarbiya va sport universiteti 3-bosqich talaba